

TOSHKENTVILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar)


Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi.


Hukumatning bu borada so'nggi yillarda amalga oshirayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

2020-yilning yanvar oyida viloyatda tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 386,0 mln. AQSh dollariga yetdi va 2019-yilning shu davriga nisbatan 29,5 % ga o'sdi.


TOSHKENT
VILOYATINING
TASHQI SAVDO
AYLANMASI
VA BALANSI
(mln. AQSh
dollari)



TSAda eksport hajmi 112,4 mln. AQSh dollariga (o'zgarish sur'ati – 94,8%) va import hajmi 273,6 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 152,4 %) yetdi. Hisobot davrida 161,2mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.



So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.



TOSHKENT
VILOYATINING
TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA
ULUSHI YUQORI
BO'LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil
yanvar,
mln.AQSh
dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %
Eron	77,4	5,9	71,6	20,1
Niderlandiya	68,4	61,6	6,8	17,7
Livan	67,8	15,6	52,3	17,6
Ispaniya	55,8	4,2	51,5	14,4
Latviya	20,0	0,5	19,5	5,2
Bolgariya	19,0	0,0	19,0	4,9
Moldova	11,0	3,0	8,1	2,9
Vetnam	10,8	0,2	10,7	2,8
Kuba	7,8	7,5	0,3	2,0
Qirg'iziston	5,1	1,8	3,3	1,3
Misr	4,5	0,4	4,1	1,2
Nikaragua	3,6	2,4	1,2	0,9
Afg'oniston	3,5	3,5	0,0	0,9
Bangladesh	3,2	0,9	2,3	0,8
Indoneziya	2,9	0,0	2,9	0,8
Kanada	2,6	0,0	2,6	0,7
Malayziya	2,5	0,6	1,9	0,6
Italiya	2,4	1,1	1,4	0,6
Hindiston	2,3	0,2	2,1	0,6
Qatar	1,5	0,0	1,5	0,4

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2020-yilning yanvar oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 43,1 % ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning shu davriga nisbatan 36,6 % ga o'shdi.

TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA
MDH MAMLA-
KATLARI VA
BOSHQA
XORIJIY DAV-
LATLARNING
HAJMLARI
(2020-yil
yanvar, mln.
AQSh dollari)

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2019-yilning yanvar oyida 59,2 % ni, 2020-yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 56,9 % ni tashkil qilgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 24,6 % ga o'shdi.






MDH davlatlaridan Afg'oniston bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo'shni davlatlardan tashqari) esa Niderlandiya va Kuba bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko'rish mumkin.

Boshqa davlatlardan TSAda eng yuqori ulush Eron, Niderlandiya, Livan va Ispaniya davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA
MDH MAMLA-
KATLARI VA
BOSHQA
XORIJIY DAV-
LATLARNING
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar,
mln. AQSh
dollari)




TOSHKENTVILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar)

Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlarni nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar eksporterlar tomonidan 112,4 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2019-yilga nisbatan o'zgarish sur'ati 94,8 %) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,6 % ni tashkil etib, bular asosan qora va rangli metallar (64,9 %), boshqa turdagi tovarlar (22,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari (7,3 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (3,4 %) shuningdek, mashina va uskunalar (1,4 %) guruhlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**EKSPORT
TARKIBI
(2020-yil yanvar)**



**EKSPORT
TARKIBI
MDH
VABOSHQA
XORIJIY
DAVLATLAR
KESIMIDA
(2020-yil yanvar)**


Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiyhajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	112,4	29,3	83,1	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Paxta tolasi	-	-	-	-	-	-
Oziq-ovqat mahsulotlari	8,2	4,7	3,4	7,3	16,2	4,1
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	3,9	2,1	1,7	3,4	7,4	2,1
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	-	-	-	-	-
Qora va rangli metallar, ulardan tayyorlangan buyumlar	72,9	6,8	66,2	64,9	23,1	79,6
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	1,6	0,1	1,5	1,4	0,3	1,8
Xizmatlar	0,4	0,2	0,3	0,4	0,5	0,3
Boshqalar	25,4	15,4	10,0	22,6	52,5	12,1

2020-yilning yanvar oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2019-yilning yanvar oyiganiqibat, oziq-ovqat mahsulotlari hamda kimyo mahsulotlari va buyumlarida o'sish kuzatildi.

**MDHVA
BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLAR
GA TOVAR VA
XIZMATLAR
EKSPORTI-
NING O'SISH
SUR'ATLARI
(2020-yil
yanvar,
% hisobida)**

Tarkibi	2019-yil yanvarg nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	94,8	100,3	130,6
shujumladan:			
Paxta tolasi	-	-	-
Oziq-ovqat mahsulotlari	172,1	3,6 m.	99,5
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	2 m.	161,4	2,9 m.
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	-	-
Qora va rangli metallar, ulardan tayyorlangan buyumlar	89,4	175,9	85,1
Mashina va asbob-uskunalar	42,3	5,8	71,2
Xizmatlar	54,8	106,9	42,7
Boshqalar	98,8	73,7	2,1 m.

**VILOYAT
EKSPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020-yil
yanvar, %
hisobida)**



**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT
-LARI
EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 4,0 mln. dollar qiymat ega 7,8 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bu 2019-yil yanvarga nisbatan qiymatda – 3,0 va naturada – 2,2 barobar o'sgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2,1 mln. AQSh dollariga teng 5,7 ming tonnadan ortiq sabzavot, shuningdek 1,3 mln. AQSh dollari qiymatidagi 1,3 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymat ko'rinishidagi o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan mos ravishda 20,0 va 19,0 barobarga o'sgan).

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

(yanvar, 2020-y.)

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT
-LARI
EKSPORTI
(yanvar,
mln. AQSh
dollari)**




Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2020-yilning yanvar oyida meva va rezavorlar hamda sabzavotlarning eksport hajmi 4,0 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, umumiy eksportdagi ulushi 3,6 % ni tashkil etdi.

TOSHKENTVILOYATININGIMPORTI (2020-yil yanvar)

Respublikada import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish va ishlab chiqarishni mahalliy-lashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan so'nggi yillarda import hajmi oshib kelayotganligini kuzatish mumkin. Jumladan, hisobot davrida import hajmi 273,6 mln. AQSh dollari (2019-yil yanvarga nisbatan 152,4 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari (38,0 %), boshqa turdagi tovarlar (28,5 %), qora va rangli metallar (15,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari (8,6 %), hamda kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (5,1 %) hisobiga to'g'ri keldi.

IMPORT TARKIBI (ulushi, % hisobida)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020-yilning yanvar oyida import qilingan tovarlar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 94,1 mln. AQSh dollariga ko'payib 273,6 mln. AQSh dollarini tashkil etdi, xizmatlar importi esa 2,3 mln. AQSh dollarga yetdi.

MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORT TARKIBI
(2020-yil
yanvar)

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	273,6	137,0	136,6	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari	23,7	17,1	6,6	8,6	12,5	4,8
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	14,0	2,8	11,2	5,1	2,1	8,2
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	8,7	8,7	0,08	3,2	6,3	0,1
Qora va rangli metallar, ulardan yasalgan buyumlar	42,9	18,4	24,5	15,7	13,4	18,0
Mashina va asbob-uskunalar	103,8	20,5	83,3	38,0	15,0	61,0
Xizmatlar	2,3	0,01	2,3	0,9	0,01	1,7
Boshqalar	78,2	69,5	8,6	28,5	50,7	6,3


Importning eng katta ulushi, jumladan, energiya manbalari va neft mahsulotlari (6,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari (12,5 %), shuningdek boshqa turdagi tovarlar (50,7 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashina va asbob-uskunalar (61,0 %), qora va rangli metallar (18,0 %) hissasiga to'g'ri keladi.

MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORTNING
O'SISH
SUR'ATLARI
(2020-yil
yanvar,
% hisobida)

Tarkibi	2019-yil yanvarga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	152,4	148,1	157,0
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari	62,7	83,5	38,0
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	104,8	62,2	126,6
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	6,1 m.	6,3 m.	151,4
Qora va rangli metallar, ulardan tayyorlangan buyumlar	2,9 m.	168,8	6,3 m.
Mashina va asbob-uskunalar	197,9	2,6 m.	187,2
Xizmatlar	92,0	6 m.	91,6
Boshqalar	136,7	147,0	87,2

2020-yil yanvar oyida import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2019-yil yanvarga nisbatan mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari importining ulushi 36,1 % dan 43,8 % gacha o'sdi, oziq-ovqat mahsulotlari va kimyo mahsulotlari importining ulushi esa 9,1 % dan 7,8 % ga va 15,3 % dan 13,2 % ga kamaydi.

VILOYAT
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020-yil
yanvar,
% hisobida)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Eron Islom Respublikasi, Livan, Ispaniya, Latviya, Bolgariya, Vetnam, Moldova hamkor davlatlaridan jami import hajmi 232,6 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 85,0 % ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:(71) 230-86-59**